



**Ota-onalarning voyaga yetmagan bolalari mulkiy huquqlarini
amalga oshirish muammolari**

Abdumurodova Guliruxsor Abdumalik qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes
huquqi yo‘nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ota-onalarning voyaga yetmagan bolalarining mol-mulki va daromadlarini boshqarishdagi vakolatlari atroflicha yoritilgan. Unda amaldagi qonunchilikda ushbu munosabatlarni tartibga solish borasida mavjud bo‘lgan bo‘shliqlar tahlil etilgan. Xususan, ota-onalarning mazkur vakolatlarni suiiste’mol qilishi natijasida voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari buzilishi ehtimolini kamaytirish maqsadida samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan aniq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: ota-ona, voyaga yetmagan bolalar, aliment, mukofot pullari, mol-mulkni boshqarish, tasarruf etish, suiiste’mollik.

Bola huquqlarini himoya qilish juda muhim masala hisoblanadi, chunki bolalar himoyaga muhtoj, ham ijtimoiy, ham huquqiy jihatdan zaif toifadagi shaxslardir. Bola himoyasi nafaqat ularning jismoniy holatini, balki xavfsiz va yaxshi sharoitda yashash, rivojlanish, mulkdor bo‘lish huquqlarini ham o‘z ichiga oladi. Huquqiy jihatdan bolalar mol-mulkka egalik qilish huquqiga ega bo‘lgan huquqiy subyektlar sifatida tan olinadi, ammo bunday mol-mulkni boshqarish va undan foydalanish odatda ota-onalar yoki vasiylar nazorati ostida amalga oshiriladi.



Ta'kidlash joizki, ko'plab chet el davlatlarida bolaning mulkini boshqarish ota-onalik mas'uliyatining bir qismi sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida ota-ona bolaga g'amxo'rlik qilish bilan birga, uning mulkini ham asrashi kerakligi to'g'risidagi aniq norma mavjud bo'lmasa-da, Oila kodeksi 94-moddasi ham ota-ona voyaga yetmagan bolalari mol-mulkini fuqarolik kodeksi asosida tasarruf etishi va boshqarishi mumkinligini tasdiqlaydi¹. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ota-onaning bola mulkini boshqarish huquqi mazkur mulkka nisbatan to'liq mulk huquqini keltirib chiqarmaydi. Ye. A. Suxanov ta'kidlaganidek: "Mulkdorning huquqlari fuqarolik huquqi uchun an'anaviy bo'lgan uchta huquq "uchlik" ("triada") yordamida ochib beriladi: egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish²". Muallifning fikricha, ushbu "uchlik"ni boshqa vakolatlar, masalan, boshqaruv vakolati bilan to'ldirishga qaratilgan ko'plab urinishlar muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Batafsilroq ko'rib chiqilganda, bunday "vakolatlar" mulkdorga beriladigan mustaqil imkoniyatlar emas, balki faqat unda mavjud bo'lgan huquqlarni amalga oshirish usullari, ya'ni subyektiv mulk huquqini amalga oshirish shakllari ekanligi ma'lum bo'ladi. Biroq, bolaning mulkini boshqarish bo'yicha ota-onalik huquqini amalga oshirishga nisbatan bunday nuqtayi nazar juda munozarali. Bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi 1996-yilgi Gaaga konvensiyasining 2-moddasida bola mulkini boshqarish, tasarruf etish yoki bu mulkni saqlash bola mulkini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida ko'rsatilgan³.

1996-yil 25-yanvardagi "Bolalar huquqlarini amalga oshirish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasiga berilgan tushuntirishda bola mulkini boshqarish oilaviy ishlarga kiritilgani

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 94-moddasi, 30.04.1998. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.04.2025-y., 03/25/1053/0317-son //

² Суханов Е.А. "Гражданское право. Том I. Общая часть". учебник. Москва: Статут, 2023, 121 с.

³ Татаринцева, Е. А. Управление имуществом ребенка его родителями: правовые проблемы / Е. А. Татаринцева // Актуальные проблемы защиты имущественных прав несовершеннолетних (материальные и процессуальные аспекты): сборник научно-практических статей / под общ. ред. А. Е. Тарасовой. - Москва: ИНФРА-М, 2015. - с. 7-12. - ISBN 978-5-16-010499-7. - Текст : электронный. - URL: <https://znanium.com/catalog/product/515246> (дата обращения: 04.07.2025)



ta'kidlangan⁴. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 90-93-moddalarida ham bolaning mulkiy huquqlari keltirilgan bo'lib, biroq masala mulk huquqi doirasida bo'lganligi bois bolaning o'z mulkini tasarruf etishida Fuqarolik kodeksi 27-29-moddalariga murojaat etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ota-onalar va bolalarning aliment majburiyatlari yetarlicha batafsil tartibga solingan bo'lsa-da, voyaga yetmaganlarning mol-mulkini ota-onasi tomonidan boshqarilishi to'liq huquqiy tartibga solinmagan. Shu sababli, bolaning mulkiy huquqlari ota-onasi tomonidan boshqarilganda muammolar kelib chiqishi mumkin. Xorijiy mamlakatlarning qonunchilik tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, Belarus Respublikasi va Boltiqbo'yi davlatlari oila qonunchiligida ota-onalarning voyaga yetmagan bolalarning ishlari va mol-mulkini boshqarish bo'yicha huquq va majburiyatlari maxsus huquqiy tartibga solingan. Buni Litva Respublikasi Fuqarolik kodeksida bolaning mol-mulki ota-onasi tomonidan boshqarilishi masalasiga alohida bob ajratilganidan ko'rishimiz mumkin. Mazkur kodeksga asosan, ota-onalar o'zlarining voyaga yetmagan farzandiga tegishli bo'lgan mol-mulkni umumiy kelishuvga ko'ra tasarruf etadilar. Bunda ular garovga qo'yilishi, sotilishi, topshirilishi yoki cheklanishi mumkin bo'lmagan hamda undirib olinishi mumkin bo'lmagan ushbu mol-mulkni ota-ona uzufrukhti huquqi asosida tasarruf etadilar⁵. Bu Litva Respublikasi Fuqarolik kodeksi 3.185-moddasida belgilangan.

Shunday qilib, Litva qonunchiligi ota-onaning bola mulkini boshqarish huquqini boshqa cheklangan ashyoviy huquqlar qatoriga kiritadi. Fransiya qonunchiligiga ko'ra, agar faqat ota-onaning biri bolaning mulkini boshqarish bo'yicha mas'ul bo'lsa, uning

⁴ Татаринцева, Е. А. Управление имуществом ребенка его родителями: правовые проблемы / Е. А. Татаринцева // Актуальные проблемы защиты имущественных прав несовершеннолетних (материальные и процессуальные аспекты) : сборник научно-практических статей / под общ. ред. А. Е. Тарасовой. - Москва : ИНФРА-М, 2015. - с. 7-12. - ISBN 978-5-16-010499-7. - Текст : электронный. - URL: <https://znanium.com/catalog/product/515246> (дата обращения: 04.07.2025)

⁵ English Civil Code of the Republic of Lithuania, of July 18, 2000, Law No. VIII-1864 (as amended on April 12, 2011, No XI-1312). Article 3.185



boshqaruv huquqi cheklanadi va u sud nazorati ostida bo‘ladi. Yolg‘iz ota yoki ona mulkni boshqarish bo‘yicha harakatlarni amalga oshirishi mumkin, biroq mulkni tasarruf etish uchun unga bolaning vasiysi kabi vakolatlar berilishi talab etiladi. Mulkka egalik qilish va undan foydalanish huquqlariga kelsak, O‘zbekiston Respublikasida ota-onalar va bolalar mulkining alohidaligi tamoyili tan olinadi. Oila kodeksining 90-moddasi 4-bandiga muvofiq, “bola ota-onasining mol-mulkiga nisbatan mulk huquqiga ega emas, ota-ona ham bolaning mol-mulkiga nisbatan mulk huquqiga ega emas”, shu bilan birga, “birgalikda yashovchi bolalar va ota-onalar o‘zaro kelishuvga asosan bir-birlarining mol-mulkiga egalik qilishlari va undan foydalanishlari mumkin⁶”.

Qonunchiligimizda bolaning mulkiy huquqlari ota-onasi tomonidan amalga oshirilayotganda to‘g‘ri boshqarilishi natijasida olingan daromadlarning qanday sarflanishi masalasi ham ochiq qolgan. Germaniya Fuqarolik kodeksining 1649-moddasiga ko‘ra, bolaning mol-mulkidan olingan daromadlar, agar ular mulkni boshqarish uchun ishlatilmasa (masalan, kommunal xizmatlar to‘lovi, ko‘chmas mulk solig‘i va boshqalar), bolaning manfaatlari yo‘lida sarflanishi lozim⁷. Ota-onalar bu daromadlardan o‘z ehtiyojlari yoki bolaning aka-ukalari va opa-singillari ehtiyojlari uchun foydalanish huquqiga ega, agar bunday foydalanish manfaatdor shaxslarning mulkiy ahvoli va daromadlarini hisobga olgan holda adolatli bo‘lsa. Shunday qilib, ushbu norma bolaning huquqlarini kafolatlash bilan birga, ota-onalarga mazkur daromadni bolaning aka-ukalari va opa-singillari ehtiyojlari uchun adolatli taqsimlash huquqini ham beradi. Bu esa ota-onalarni qonuniy foydalanganlik uchun javobgarlikka tortish imkoniyatini istisno qiladi. Normada adolat atamasi qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bu baholovchi toifaga kirsa ham, daromad barcha bolalar o‘rtasida teng taqsimlansa, adolat tamoyili bajarilishi va unga rioya qilinishi ta‘minlanadi. Bola

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 90-moddasi, 30.04.1998. // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.04.2025-y., 03/25/1053/0317-son //

⁷ German Civil Code. Section 1649. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html#p7021



mulkidan olingan daromadlarni shu tarzda taqsimlash masalasi Litva Respublikasi Fuqarolik kodeksi 3.190-moddasida ham o'z aksini topgan⁸.

Biroq, ota-onaning voyaga yetmagan bolalari mulkini boshqarishi masalasi to'liq tartibga solinmagani bois, ota-ona tomonidan boshqaruvchilik huquqining suiiste'mol qilinishi va bolaning mulkiy manfaatlariga zarar yetkazishi holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bunga misol tariqasida bola ta'minoti uchun undirilgan aliment pulini sarflanishini nazorat qiluvchi norma yo'qligi sababli, ota-ona tomonidan aliment pulini o'z shaxsiy manfaatlariga yo'lida sarflash ehtimoli mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Majburiy ijro byurosi o'zining rasmiy saytida 15.05.2025 sanada Muzrabod tumanida yashovchi ota ikki o'g'il farzandi ta'minoti uchun 274 million so'm aliment pulini naqd to'laganligi, bu mablaol belgilangan tartibda MIB orqali undiruvchi N. G'afforovning bank plastik kartasiga yo'naltirilgani haqida ma'lumot bergan⁹. Bundan tashqari, Majburiy ijro byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 30.09.2024 yilda sudning 14.08.2024 yildagi ijro varaqasiga asosan qarzdor Sh.A. dan undiruvchi Sh.G. foydasiga voyaga yetmagan uch nafar farzandlari ta'minoti uchun ular voyaga yetgunga, ya'ni 18 yoshga to'lguniga qadar aliment miqdorini oldindan to'lab berish niyatini bildirgan va taraflar o'rtasida kelishuv tuzilib, bitim sud tomonidan tasdiqlangan. Unga ko'ra, qarzdor Sh. A. o'ziga tegishli bo'lgan jami 1mlrd. 825 mln. 137 ming so'mga baholangan 2 ta noturar joy obyektni aliment hisobidan o'tkazib bergan¹⁰. Shunga o'xshash holatlar bugungi kunda ko'p uchramoqda. Bir qarashda bu vaziyat voyaga yetmagan bolalarning mulkiy manfaatlarini oldindan muhofaza etayotgandek tuyulishi mumkin. Biroq, aliment pulining undirilishi bolalar ta'minot olish huquqining buzilishiga bo'lgan tahdidni to'liq yo'q qilmaydi. Shu sababli davlat aliment undirish bilan bir qatorda, uning qanday maqsadlarda

⁸ Civil Code of the Republic of Lithuania, of July 18, 2000, Law No. VIII-1864 (as amended on April 12, 2011, No XI-1312). Article 3.190

⁹ https://www.mib.uz/news_single?pub_id=3870

¹⁰ https://www.mib.uz/news_single?pub_id=3441



sarflanayotganini ham nazorat qilishi kerak. Ya'ni aliment puli undirilganidan keyin ham bolaning mulkiy manfaatlariga zid ravishda ishlatilish ehtimoli mavjud. Bu vaziyatda bola bilan yashayotgan ota yoki ona aslida bolaning shaxsiy ehtiyojlari uchun undirilayotgan aliment pulini o'zining shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlari uchun sarflash holatlariga duch kelish mumkin. Mazkur holat esa o'z navbatida, bolaning yaxshi sharoitlarda o'qish, yashash va rivojlanish huquqlariga putur yetkazadi. Mulkiy huquqlarsiz shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilib bo'lmaydi.

Bu suiiste'mollikning oldini olish uchun voyaga yetmaganlar nomiga bankdan alohida hisobraqam ochilib, aliment pullari qanchadir miqdordan ortiq bo'lganda, mazkur hisobraqamda saqlanishi hamda vasiylik va homiylik organi roziligi va nazorati ostida ota yoki ona tomonidan bolaning ehtiyojlari uchun sarflanishi kerak. Yuqoridagi vaziyat kabi oldindan to'lanayotgan aliment mol-mulk shaklida berilsa, ushbu mol-mulk aliment olish huquqiga ega bo'lgan bolaning nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Mazkur takliflar voyaga yetmagan bolalarning aliment pulini suiiste'mol qilinishidan saqlaydi.

Ota-onalar tomonidan voyaga yetmagan bolalari mol-mulklarini shaxsiy manfaatlari yo'lida ishlatish holatlari nafaqat undirilgan aliment pullarida, balki bolaning hadya, meros tariqasida olgan mol-mulkida, shuningdek, fan va sport olimpiadalarida olgan mukofot pullari hamda mehnat natijasida topgan daromadlarini boshqarish jarayonida ham uchrashi mumkin. Bunday holatlarning yaqqol misollaridan biri — amerikalik aktrisa Jena Malone bilan bog'liq. Bolaligida Contact, Hope va Stepmom kabi filmlarda rol o'ynagan Jena 1999-yilda onasini sudga berdi. Davo arizasida onasi uning pullarini noto'g'ri boshqargani, hatto 1 million dollardan ortiq mablag'ni behuda sarflagani, shuningdek 20 ming dollar miqdorida soliq qarzi to'planib qolgani va kollej uchun jamg'arilgan pullar butunlay yo'qolganini ko'rsatdi¹¹.

¹¹ <https://www.buzzfeed.com/noradominick/child-stars-lost-money-savings>



Bu kabi holatlar yolg'iz Jena Malone bilan cheklanmaydi. Chunki o'sha vaqtda amalda bo'lgan Kaliforniya qonunchiligiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxsning daromadlari to'liq ravishda uning ota-onasiga tegishli hisoblangan. Mazkur holatlarni eng mashhurlaridan yana biri — Jackie Coogan bilan bog'liq. U Charlie Chaplinning *The Kid* filmida rol o'ynab, Gollivud tarixidagi birinchi mashhur bola aktyor bo'lgan. Otasi vafot etgach va kino karyerasi pasayganidan so'ng, Jackie 21 yoshga to'lganida bolaligida qilgan mehnatlari evaziga ishlab topgan daromadlaridan hech nima qolmaganini angladi. Shundan so'ng, u onasi va sobiq menejerini sudga berdi¹². Ushbu voqea keng jamoatchilik e'tiborini tortdi va natijada 1939-yilda "Coogan qonuni" qabul qilindi. Bu qonun aktyor bolalarning moliyaviy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, kelajakda boshqa bolalarning Jackie Coogan kabi holatga tushib qolishining oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan.

Dastlabki Coogan qonuni ayrim bo'shliqlarga ega edi. Shu sababli u keyinchalik takomillashtirildi va 2000 yil 1 yanvarda Kaliforniya qonuniga kiritilgan o'zgartirishlar, voyaga etmaganlarning ko'ngilochar sanoatidagi daromadlari ularning ota-onalari emas, balki voyaga etmaganlarning mulki ekanligini tasdiqladi. Voyaga etmagan shaxs o'z pullarini qonuniy ravishda nazorat qila olmasligi sababli, Kaliforniya qonuni ularning daromadlarini shu tarzda boshqaradi. Mazkur qonunning eng muhim jihatlaridan biri — daromadning kamida 15 foizi maxsus "Coogan hisob raqami"ga o'tkazilishi shartligi bilan bog'liq. Bu hisob raqam bloklangan bo'lib, undan bolaning 18 yoshga to'lguniga qadar foydalanish mumkin emas¹³. Amaldagi tartibga ko'ra, aktyor bola ishga olinganidan so'ng 15 kun ichida uning ish haqining 15 foizi ish beruvchi tomonidan ushlab qolinadi va Coogan hisobiga o'tkaziladi. Ota-ona esa ish beruvchiga ushbu hisob raqam ma'lumotlarini taqdim etishga majburdir. Ushbu tizim voyaga yetmagan bolalarning moliyaviy

¹² <https://www.buzzfeed.com/noradominick/child-stars-lost-money-savings>

¹³ AB-1880 Minors: artistic employment.

https://leginfo.legislature.ca.gov/faces/billNavClient.xhtml?bill_id=202320240AB1880



manfaatlarini himoyalashga qaratilgan bo‘lib, ularning daromadlaridan kelgusida foydalanish imkonini saqlab qoladi va ota-ona va bola o‘rtasida ishonchli munosabatlarni yaratadi.

Bugungi kunga kelib, qonunga zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda qo‘shimchalar kiritilgan bo‘lib, Oila kodeksi 6750-6753-moddalar asosida nafaqat aktyor, sportchi, musiqachi bolalarning, balki, blogger bolalarning ham mulkiy huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi¹⁴.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ham Coogan qonuniga o‘xshash normalarning kiritilishi zamonaviy jamiyatda tobora keng quloch yoyayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning oldini olishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Xususan, bu kabi me‘yorlar voyaga yetmagan aktyorlar, sportchilar, musiqachilar, bloggerlar va boshqa san’atkor bolalarning mulkiy manfaatlarini qonuniy himoya qilish mexanizmini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda to‘liq muomalaga layoqatli bo‘lgan shaxslarga nisbatan voyaga yetmaganlar ko‘proq mashhurlikka erishmoqda, bu esa ularning yoshiga nisbatan sezilarli miqdorda daromad topishiga olib kelmoqda. Afsuski, amaldagi qonunchilik bu kabi holatlarda bolalar daromadlarining qonuniy va samarali boshqarilishini to‘liq tartibga solmaydi.

Ushbu normaning qonunchilikka kiritilishida, albatta, bolaning ijtimoiy yashash sharoiti va moliyaviy ahvoli inobatga olinishi lozim. Masalan, 12 yoshli bola bloggerlik yoki aktyorlik faoliyati orqali katta miqdorda daromad topdi, ammo u hali ham oilasi bilan ijarada yashamoqda. Ushbu holatda bolaning daromadi hisobiga oilasi uchun yangi turar-

¹⁴ Family Code of California 6750-6753.

https://leginfo.legislature.ca.gov/faces/codes_displayText.xhtml?lawCode=FAM&division=11.&title=&part=3.&chapter=3.&article



joy sotib olinishi, bolaga qulay yashash muhitini yaratishi mumkin — bu bolaning manfaatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat qiluvchi xarajat sifatida baholanishi kerak.

Shu bilan birga, bolaga tegishli daromadlar butunlay sarf etilishining oldini olish, u voyaga yetgach ham moddiy asosga ega bo‘lishini ta‘minlash maqsadida, qolgan mablag‘ning kamida 15 foizini bankda bolaning nomiga ochilgan bloklangan hisob raqamga o‘tkazib borish huquqiy majburiyat sifatida belgilanishi lozim. Ushbu hisob raqam voyaga yetguniga qadar faqat bolaning o‘zi foydalana olmaydigan, ammo himoyalangan jamg‘arma shaklida mavjud bo‘ladi. Bunday mexanizm bolaning daromadlari ustidan shaffof va nazorat ostida bo‘lgan moliyaviy boshqaruvni ta‘minlaydi, ota-onaning bolalar mol-mulkidan noqonuniy yoki noto‘g‘ri foydalanish xavfini kamaytiradi, shu bilan birga, voyaga yetgach, bolaga mustaqil hayotini boshlash uchun moliyaviy tayanch yaratishga ham xizmat qiladi.

Biroq, qolgan 85 foiz daromadni hamda bolaning meros, hadya tariqasida olgan mol-mulkklarini boshqarishda ham qonunchilik tomonidan nazorat qilinishi muhim ahamiyatga ega. Buni bola mulkini boshqarish vakolatini cheklovchi normalar bilan amalga oshirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasida ota-onalarning mulkni boshqarish bo‘yicha vakolatlarini amalga oshirishda o‘z huquqlarini suiiste‘mol qilish muammosi juda dolzarbdir. Biroq, Oila kodeksi ham, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonun ham buning uchun hech qanday javobgarlikni nazarda tutmaydi.

Litva Respublikasi Fuqarolik kodeksining 3.185-moddasiga ko‘ra, ota-onalar o‘zlarining voyaga yetmagan bolalarining mol-mulkini noto‘g‘ri tasarruf etgan taqdirda, bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat muassasasi yoki prokurorning arizasiga binoan ushbu majburiyatni bajarishdan chetlashtirilishi mumkin. Ota-onalar tomonidan o‘z farzandining mol-mulkiga zarar yetkazadigan suiiste‘molliklarni aniqlashda vasiylik va homiylik organlari tomonidan davlat nazorati zarurligi O‘zbekiston Respublikasida ham yaqqol ko‘rinib turibdi. Biroq, vasiylik va homiylik organlarining ushbu funksiyasi qonunda



aniq ko'rsatilishi kerak. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlarining mol-mulkini boshqarish faoliyatiga nisbatan hech qanday maxsus cheklovlar nazarda tutilmagan. Bu esa ota-onalarga o'z farzandlari mulkiga doir bitimlarni erkin amalga oshirish imkonini beradi.

Ayni paytda, vasiy va homiylarning faoliyatini taryibga soluvchi qonun hujjatlarida vasiylar va homiylarga nisbatan muayyan cheklovlar belgilangan bo'lib, unga ko'ra, vasiylik va homiylikdagi shaxslarning, shu jumladan, voyaga yetmaganlarning mulkini boshqarishda vasiylik va homiylik organining ruxsatisiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan ayrim bitimlar va harakatlar mavjud. Bunday cheklovlar asosan bolalar manfaatini himoya qilish, ularning mol-mulkiga zarar yetkazilishining oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Shunga qaramasdan, ota-onalarga nisbatan bunday cheklovlarning mavjud emasligi ularning bolalar mol-mulkiga oid bitim va harakatlarni nazoratsiz amalga oshirishiga zamin yaratadi. Bu holatda ota-onaning shaxsiy manfaatlari ustun qo'yilishi, bolalarning mulkiy huquqlari esa poymol etilishi xavfi yuzaga keladi.

Mazkur vaziyat bolalarning mulkiy huquqlarini ishonchli himoya qilishda muhim bo'lgan bo'shliqni ko'rsatadi. Shu sababli, amaldagi qonunchilikda ota-onalar va farzandlikka oluvchilarning voyaga yetmaganlar mol-mulkini boshqarishda ularning huquqlarini muayyan bitimlar va harakatlar bo'yicha cheklovchi, nazorat mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xususan, bola manfaatlari ustuvorligini ta'minlash borasida ilg'or tajribaga ega davlatlardan biri bo'lgan Shvetsiya qonunchiligida ota-onalarning ham farzandlar mulkiga doir ayrim muhim harakatlari uchun vakolatli davlat organining oldindan roziligi talab etiladi. Shvetsiya Ota-onalar va bolalar kodeksi 13-bobi 10-moddasida ota-onalar voyaga yetmagan farzandlari nomidan ko'chmas mulk va unga bo'lgan huquq bilan bog'liq muhim



bitimlarni faqat asosiy vasiylik organining roziligi bilan amalga oshirishlari mumkinligi belgilangan.

Xususan, ular quyidagi holatlarda ruxsat olishlari shart:

1. ko'chmas mulkni yoki bunday mulkka bo'lgan huquqni sotib olish, ayirboshlash yoki hadya qilish yo'li bilan olish, agar turar joyga bo'lgan ijara huquqini boshqa shaxsga o'tkazish nazarda tutilmagan bo'lsa;
2. o'zganing ko'chmas mulkidan foydalanish huquqi to'g'risida shartnoma tuzish, agar uy-joyni boshqa shaxsga berish yoki kichik xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan vaqtinchalik ijaraga berish nazarda tutilmagan bo'lsa;
3. ko'chmas mulkni yoki bunday mulkdan foydalanish huquqini sotish yoki ayirboshlash, agar bu uy-joyni topshirish bilan bog'liq bo'lmasa, yoki
4. ko'chmas mulkni yoki ijara huquqini foydalanish huquqi bilan garovga qo'yish, ijaraga berish yoki boshqacha tarzda berish¹⁵.

Shuningdek, Ukraina Fuqarolik kodeksi 32-moddasida ham voyaga yetmagan shaxsning transport vositalari yoki ko'chmas mulk bilan bog'liq bitim tuzishi uchun ota-onasi (farzand asrab oluvchilar) yoki vasiyning notarial tasdiqlangan yozma roziligidan tashqari, vasiylik va homiylik organining ruxsati ham bo'lishi kerakligi belgilangan¹⁶. Bu normalar ota-onalarning huquqiy javobgarligini oshirish va bolalar mulkini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Voyaga yetmaganlarning mol-mulkini boshqarish faqat vasiylar tomonidan emas, balki ota-onalar tomonidan amalga oshirilganda ham muayyan nazoratga olinishi lozim. Chunki amaldagi qonunchilikda ota-onalarga o'z farzandlarining mol-mulkini boshqarishda deyarli hech qanday cheklovlar qo'yilmagan. Bu esa ota-onalarga keng erkinlik beradi va

¹⁵ Föräldrabalk (1949:381) Fast egendom m.m. 10 §. https://www.riksdagen.se/sv/dokument-och-lagar/dokument/svensk-forfattningssamling/foraldrabalk-1949381_sfs-1949-381/#K13

¹⁶ Цивільний кодекс України Стаття 32. <https://uristy.ua/laws/civilnij-kodeks-ukraini/glava-4-statta-32>



ayrim hollarda bolalarning mol-mulkini ularning manfaatlaridan ko'ra, ota-onaning shaxsiy ehtiyojlari uchun ishlatilishiga olib kelishi mumkin.

Shunday ekan, bolaning mulkiy manfaatlarini ishonchli himoya qilish uchun ota-onalarning mol-mulkka doir muhim bitimlari va harakatlari ustidan ham nazorat mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv, bir tomondan, ota-onaning bolaga nisbatan ishonchli vakillik vazifasini muvozanatlaydi, boshqa tomondan esa bolalarning mulkiy huquqlarini suiste'mollardan himoya qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, voyaga yetmaganlar mulkiy huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

1. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalari nomiga undirilayotgan aliment pullarini sarflashdagi suiste'mollikning oldini olish uchun voyaga yetmaganlar nomiga bankdan alohida hisobraqam ochilib, aliment pullari qanchadir miqdordan ortiq bo'lganda, mazkur hisobraqamda saqlanishi hamda vasiylik va homiylik organi roziligi va nazorati ostida ota yoki ona tomonidan bolaning ehtiyojlari uchun sarflanishi kerak. Oldindan to'lanayotgan aliment mol-mulk shaklida berilganida esa, ushbu mol-mulk aliment olish huquqiga ega bo'lgan bolaning nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.
2. AQSh Kaliforniya shtati "Coogan qonuni"dan kelib chiqib, san'at sohasida ishlayotgan, bloggerlik faoliyati hamda professional sport bilan shug'ullanayotgan, shuningdek, fan olimpiadalarida qatnashib daromad topayotgan voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlarini uzoq muddatli himoya qilish uchun bolalar nomiga maxsus bloklangan "Hisobraqam" ochilishi va voyaga yetmaganlar har bir daromadining kamida 15 foizi avtomatik ravishda mazkur hisobraqamga tushiri turilishi kerakligi to'g'risidagi huquqiy mexanizm ishlab chiqilishi kerak. Bu taklif nafaqat, qonuniy vakillar suiste'molligidan saqlaydi, balki voyaga yetmaganlar 18 yoshga to'lgunga qadar katta hayotga qadam qo'yayotganda moliyaviy asos yaratishga yordam beradi.



3. Shvetsiya Ota-onalar va bolalar kodeksidan kelib chiqib, ota-onaning voyaga yetmagan bolalari mol-mulkini boshqarish vakolati katta miqdordagi va ko'chmas mol-mulk bilan bog'liq bitimlar tuzishda va harakatlar bajarishda cheklanishi va vasiylik va homiylik organi nazorati ostida amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, 30.04.1998. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.04.2025-y., 03/25/1053/0317-son //
2. English Civil Code of the Republic of Lithuania, of July 18, 2000, Law No. VIII-1864 (as amended on April 12, 2011, No XI-1312).
3. German Civil Code.
https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html#p7021
4. Family Code of California 6750-6753.
https://leginfo.legislature.ca.gov/faces/codes_displayText.xhtml?lawCode=FAM&division=11.&title=&part=3.&chapter=3.&article
5. Föräldrabalk (1949:381) Fast egendom m.m. 10 §.
https://www.riksdagen.se/sv/dokument-och-lagar/dokument/svensk-forfattningssamling/foraldrabalk-1949381_sfs-1949-381/#K13
6. Цивільний кодекс України.
<https://uristy.ua/laws/civilnij-kodeks-ukraini/glava-4-statta-32>
7. Суханов Е.А. "Гражданское право. Том I. Общая часть". учебник. Москва: Статут, 2023, 121 с.
8. Татаринцева, Е. А. Управление имуществом ребенка его родителями: правовые проблемы / Е. А. Татаринцева // Актуальные проблемы защиты имущественных прав несовершеннолетних (материальные и процессуальные аспекты): сборник научно-



- практических статей / под общ. ред. А. Е. Тарасовой. - Москва: ИНФРА-М, 2015. - с. 7-12. - ISBN 978-5-16-010499-7. - Текст: электронный. - URL:
<https://znanium.com/catalog/product/515246> (дата обращения:04.07.2025)
9. https://www.mib.uz/news_single?pub_id=3870
10. <https://www.buzzfeed.com/noradominick/child-stars-lost-money-savings>